

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
«TABIYOT FANLARI» FAKULTETI
«GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI» KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

_____ **E.R.Yuzlikayeva**

«_____» _____ 2014 yil

**5140500-«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo'nalishi kunduzgi
bo'lim 401-guruh talabasi**

Marqaev Bunyod Karimovichning

“Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan iqtisodiyotda foydalanish”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya

va uni o'qitish metodikasi»

kafedrası professor

_____ **A.Soliev**

Himoyaga tavsiya etilsin»

«Geografiya va uni o'qitish

metodikasi» kafedrası mudiri

_____ g.f.n. dots. **N.R.Alimqulov**

«_____» _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil

Mundarija

Kirish 3-4 b.

**I.Bob. Qashqadaryo viloyati geografik o'рни, tabiiy sharoiti va
resurslari.....**

1.1 Qashqadaryo viloyati geografik o'рни va tabiiy sharoiti5-10 b.

1.2. Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslari.....10-17 b.

1.3 Qashqadaryo viloyati aholisi va mehnat
resurslari.....17-23b.

**II.Bob. Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan iqtisodiyot tarmoqlarida
foydalanish.....**

2.1. Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlari rivojlanishida tabiiy resurslardan
foydalanish24-30 b.

2.2 Tabiiy resurslarning viloyat qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi
ahamiyati.....30-34 b.

**III. Bob. Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan foydalanishning hozirgi
holati va istiqbollari**

3.1 Tabiiy resurslardan iqtisodiyotda samarali foydalanish muammolari
.....35-38 b.

3.2 «Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan iqtisodiyotda foydalanish»
mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan
foydalanish.....38-53 b.

Xulosa.....54 b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....55 b.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, inson faoliyati jarayonida hosil bo'lgan moddiy resurslar tabiiy resurslarni qayta ishlash jaronida vujudga kelgan. Tabiiy resurslar — kishilik jamiyati faoliyati uchun zarur bo'lgan va xo'jalikda bevosita foydalaniladigan tabiat elementlaridir (modda va quvvat turlari). Tabiiy resurslarga tuproqlar, foydali yovvoyi o'simlik va hayvonot dunyosi, mineral xom ashyo, suv va hokazolar kiradi. Tabiiy resurslar omil sifatida nafaqat iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi, balki ularning joylashuvi, aholi manzilgohlarining shakllanishi, transport yo'llarining barpo etiishi kabilarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Lekin, shu bilan birga tabiiy resurslar hududiy jihatdan bir tekis taqsimlanmaganligini ham qayd etish zarur.

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasi viloyatlari orasida o'zining bir qator ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, bu mintaqada to'plangan yoqilg'i-energetika resurslaridan gaz, Markaziy Osiyo mintaqasida yagona hisoblangan kaliy zavodi barpo etishga asos bo'lgan kaliy tuzlari shular jumlasidandir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z nutqida shunday deydi: "...Hozirgi vaqtda mamlakatimiz yalpi sanoat mahsulotining qariyb 11 foizi aynan Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilmoqda.

Bunday natijalarga erishishda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan, mamlakatimiz iqtisodiyotining faxri bo'lgan yirik zamonaviy korxonalar katta hissa qo'shayotganini e'tirof etish lozim..."¹. Bundan tashqari joylashgan tabiiy geografik o'rin holati bu yerda yer, agroiqlimiy, tabiiy rekreatsion resurslarga boy bo'lishiga sababchi bo'lmoqda. Shu bilan birga viloyatda suv resurslariga nisbatan tanqislik seziladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tabiiy resurslarning viloyat iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganish mavzuning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Ob'ekti: Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslari.

¹ Xalq so'zi. 28.09.2013 y

Predmeti: Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan foydalanish asosida rivojlangan iqtisodiyot tarmoqlarini o'rganib chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Mavjud tabiiy resurslardan Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida samarali foydalanish muammolarini tadqiq etish.

Vazifalari:

- Qashqadaryo viloyati geografik o'rni va tabiiy sharoitini o'rganish;
- Viloyat tabiiy resurslariga tavsif berish;
- Aholisi va mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishidagi ahamiyatini tahlil qilish;
- Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan iqtisodiyotda samarali foydalanish istiqbollari va muammolarini ochib berish;
- «Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan iqtisodiyotda foydalanish» mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: BMI ma'lumotlaridan 8-sinf "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi", "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanlarining Qashqadaryo viloyatiga tegishli mavzularini o'tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: Ishning umumiy hajmi 55 betdan iborat. Unda 4 ta chizma, 12 ta jadval va 3 ta karta-sxema mavjud. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati 15manbaadan tashkil topgan. Bundan tashqari, ish so'nggida mavzuga oid – so'zdan iborat inglizcha-o'zbekcha glossariy, qisqacha o'zbek, rus va ingliz tillaridagi annotatsiya mavjud.

I – BOB. QASHQADARYO VILOYATI GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI.

1.1. Qashqadaryo viloyati geografik o'rni va tabiiy sharoiti

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibida dastlab 20 yanvar 1943 yilda tashkil etilgan, 1960-1964 yillar oralig'ida u Surxondaryo viloyati bilan qo'shilgan va 7.02.1964 yilda qayta tiklangan. Viloyat maydoni 28,6 ming km² bo'lib, mamlakat hududining 6,4 foizini egallaydi. Bu borada Qashqadaryo Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlaridan so'ng 4-o'rinda turadi.

Aholisi, 1 yanvar 2012 yil ma'lumotlariga ko'ra, 2777,8 ming kishi (respublika aholisining 9,3 foizi). O'zining demografik sig'imi yoki salohiyati bo'yicha O'zbekiston mintaqalari ichida Samarqand, Farg'ona viloyatlaridan keyingi 3-o'rinni egallaydi (u bundan 8-10 yil muqaddam 5-o'rinda edi). Bundan ko'rinadiki, Qashqadaryoda aholi soni tez o'sib, u keyingi yillarda poytaxt Toshkent va Andijon viloyatlaridan o'tib ketgan.


O'zbekiston Respublikasi mehnat taqsimotida Qashqadaryo yetakchi mavqelardan birida turadi. 2011 yil yakunlariga qaraganda, bu yerga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 7,5, tashqi savdo aylanmasining 2,2, sanoat ishlab chiqarishining 10,4, qishloq xo'jaligi mahsulotining 8,1, kapital qo'yilmalarning 10,5, o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning 10,1, qurilish hajmining 8,6 foizi to'g'ri keladi. Yalpi ichki mahsulot ulushiga ko'ra viloyat - 2, sanoatda - 3, qishloq xo'jaligida – 7, kapital quyilmalar hajmiga ko'ra esa - 3 o'rinda turadi (taqqoslash uchun: 2000 yilda viloyat respublikaning 6,4 % yalpi ichki mahsuloti, 8,3 % sanoat, 7,2 % qishloq xo'jalik mahsulotini bergan). [4]

Qashqadaryo viloyati ma'muriy-hududiy tuzilishida 13 qishloq tumanlari mavjud (1-jadval). Tashkil topgan muddatiga ko'ra eng "qadimgi" qishloq tumanlari Yakkabog', Koson, G'uzor va Shahrisabz hisoblanadi (ular 1926 yilda

Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari haqida ba'zi bir ma'lumotlar
(1.01.2011 y.)

t/r	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Tuman markazi	Maydoni, ming kv km	Aholisi, ming kishi	Aholi zichligi, 1 kv.km/kishi
1	Dehqonobod	31.08.1971	Karashina sh-cha	4,00	120,0	30,0
2	Kasbi	25.12.1968	Mug'lon sh-cha	0,65	154,3	237,4
3	Kitob	25.12.1968	Kitob sh.	1,75	218,2	124,7
4	Koson	29.09.1926	Koson sh.	1,88	230,3	122,5
5	Mirishkor	25.04.2003	Yangi Mirishkor sh-cha	3,21	96,2	30,0
6	Muborak	13.09.1978	Muborak sh.	3,07	70,7	23,3
7	Nishon	06.03.1975	Yangi Nishon sh.	2,11	113,7	53,9
8	CHiroqchi	22.02.1964	CHiroqchi sh.	2,84	322,2	113,4
9	SHahrisabz	29.09.1926	SHahrisabz sh.	1,66	306,2	184,4
10	Yakkabog'	20.09.1926	Yakkabog' sh.	1,10	215,4	195,8
11	Qamashi	31.12.1964	Qamashi sh.	2,66	216,7	81,5
12	Qarshi	04.10.1931	Beshkent sh.	0,91	198,0	217,6
13	G'uzor	29.09.1926	G'uzor sh.	2,65	164,6	62,1
Qashqadaryo viloyati		20.01.1943	Qarshi sh.	28,6	2668,8	93,3

Qashqadaryo viloyatining hududiy-ma'muriy tuzilishi



SHartli belgilar:

1. CHiroqchi tumani
2. Dehqonobod tumani
3. G'uzor tumani
4. Qamashi tumani
5. Qarshi tumani
6. Koson tumani
7. Kasbi tumani
8. Kitob tumani
9. Mirishkor tumani
10. Muborak tumani
11. Nishon tumani
12. SHaxrisabz tumani
13. Yakkabog' tumani


tashkil etilgan). Bir qator tumanlari esa ko'proq Qarshi dashtini o'zlashtirish munosabati bilan (Muborak, Nishon, Kasbi, Mirishkor) vujudga kelgan. Maydonining ko'lami bo'yicha eng katta tuman Dehqonobod; Mirishkor va Muborak tumanlari ham nisbatan katta hisoblanadi (1-chizma). Yuqoridagi uch qishloq tumanlarining maydoni 10,3 ming kv. km yoki mintaqa hududining 36,0 foizi demakdir. Eng kichik tuman - Kasbida 0,65 ming kv. km yer bor. Shunday qilib, viloyat ma'muriy birliklarining geografiylik koeffitsienti 6,1 ga teng; o'rtacha har bir qishloq tumaniga taxminan 2 ming kv. kmdan ziyodroq yer maydoni to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytganda, Qashqadaryoning faqat Dehqonobod tumani Andijon yoki Sirdaryo viloyati maydoniga deyarli teng. [10]

Qashqadaryo viloyati mamlakatning janubida joylashgan, u shimoli-g'arbda Buxoro, shimolda Samarqand va qisqaroq masofada Navoiy viloyatlari, janub va janubi-sharqda Surxondaryo viloyati bilan chegaradosh. Geosiyosiy mavqei ham o'ziga xos; viloyatning hududi g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan tutashgan.

Tabiiy sharoit har qanday mamlakat, viloyat, mintaqa xo'jaligining rivojlanishini sekinlashtirishi yoki tezlashtirishi mumkin. Tabiiy sharoit qishloq xo'jaligining ixtisoslashtirishiga va joylashuviga, transport qurulishiga ta'sir etib, turli joylarda xo'jalik yurutishni arzonlashtirishi yoki qimmatlashtirishi mumkin. Rel'ef xo'jalikni balandlik mintaqalari sari turli sohalarga ixtisoslashib borishiga sabab bo'ladi. Rel'efi tekis bo'lgan joylar sanoati, transporti va qishloq xo'jaligini rivojlantirish juda qulay. Qurulish ishlari uchun juda kam mablag' sarflanadi. Rel'efning past-balandligi orta borishi sari xo'jalik yurutish qiyinlashib boradi, qurulish ishlariga sarflanadigan xarajatlar oshib ketadi. [2]

Qashqadaryo viloyati tabiiy sharoiti ham uning iqtisodiyoti tarmoq tarkibining shakllanishida katta ahamiyatga ega (2-chizma). Uning uer usti tuzilishi ancha murakkab - uning taxminan yarmidan ko'proq qismi tekislik va uncha baland bo'lmagan tepaliklardan iborat (250-500 metr dengiz sathidan baland). Katta maydonga ega bo'lgan Qarshi cho'li ham aynan Shu yerda joylashgan. Viloyat

Qashqadaryo viloyati tabiiy kartasi



shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqda tog'liklar bilan o'ralgan. Bu yerda Zarafshon va Hisor tizmalari, Chaqchar tog'lari ko'tarilib turadi, ularning eng baland nuqtalari 3750-4400 metr gacha yetadi. Shaxrisabz tumanining eng chekka sharqiy qismida 4100-4400 metrlik balandlikka ega bo'lgan tog' cho'qqilari bor, masalan, G'ova dovonining balandligi 4415 m. Umuman olganda, Shaxrisabz, Qamashi, Dehqonobod, Kitob va qisman Chiroqchi tumanining shimoliy qismi tog'liklardan iborat. Nisbatan baland (dengiz sathidan 1400 m baland) joylar Yakkabog' tumanining sharqiy hududlarida ham bor. [5]

Viloyatning qolgan markaziy va g'arbiy qismlari esa past tekisliklardan tashkil topgan. Shunday qilib, mintaqaning yer usti, orografik tuzilishi shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqdan g'arb, shimoli-g'arb yo'nalishida pasayib borishi bilan tavsiflanadi. Qolaversa, Qashqadaryo, ya'ni Shu nomli gidrografik tizimning, uning havzasini shakllanishi, oqim yo'nalishi ham viloyat rel'efini o'zida aks ettiradi.

Viloyat rel'efining bunday turli-tumanligi o'ziga xos tabiiy boyliklarga egaligini asoslab beradi va ichki hududiy mehnat taqsimoti, iqlim sharoitlarining shakllanishiga sabab bo'ladi. Jumladan, Qashqadaryoning quyi qismi qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qulay bo'lgan katta yer maydonlariga ega.

1.2. Qashqadary viloyati tabiiy resurslari

Tabiiy resurslarning ichida jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin tutadigani mineral resurslardir. Mineral resurslar xalq ho'jaligining deyarli barcha sohalarida ishlatiladi. Viloyat respublikamizda neft va tabiiy gaz zahiralarining ko'pligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Chunonchi, ko'rilayotgan hududda Ko'kdumaloq, Muborak, Pomuk kabi yirik neft-gaz, Sho'rta, Zevardi, G'uzor, Janubiy Pomuk, Qamashi, Alan, Qo'ltoqqa o'xshash tabiiy gaz, Qo'shquduq neft konlari mavjud. Viloyatning Dehqonobod tumani esa turli xil tuz konlari, qurilish materiallari xom ashyosiga boy. Ayniqsa, katta zahiraga ega bo'lgan kaliy tuzlarining borligi mamlakatimizda kaliy

o'g'itlarini ishlab chiqarish sanoatini tashkil qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda Tubigatan tuz koni asosida respublikamizda qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan kaliy o'g'itlari ishlab chiqaruvchi dastlabki zavod barpo etilgan.

Viloyatning yuqori - Shahrisabz mintaqasida marmar g'isht-cherepitsa xom ashyosi va boshqa konlar aniqlangan. Kuldarada polimetal rudalari, Zarmasda oltin, G'uzor, Yakkabog', Chiroqchida har xil qurilish materiallari topilgan. Bu yerda Kitob geologik qo'riqxonasi tashkil qilingan. Shunday qilib, Qashqadaryoda, yoqilg'i-energetika, tog'-kon va gaz kimyosi, qurilish materiallari sanoatini keng ko'lamda rivojlantirishga qulay imkoniyatlar bor. Mintaqa bunday ulkan mineral resurs salohiyati bo'yicha respublikamizda alohida ajralib turadi. Bu xususan Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyati singari mamlakat milliy iqtisodiyoti, eng avvalo, tog'-kon va yoqilg'i-energetika sanoatini rivojlantirishga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. [5]

Iqlimi kontinental, yog'in-sochin miqdori, ayniqsa, cho'l mintaqasida juda oz. Binobarin, bu yerda dehqonchilikni rivojlantirish uchun irrigatsiya infratuzilmasi talab etiladi. Ayni vaqtda tog' oldi va tog' mintaqasida yillik yog'in-sochin miqdori 800-900 mm gacha yetadi. Bu esa daryolarning to'yinishiga qulay sharoit yaratadi va mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tabiiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Viloyat hududi Qashqadaryo havzasida joylashgan, uning nomi ham, tarixi, geografiyasi ham aynan Shu suv manbai bilan bog'liq. **Qashqadaryo** Hisor tizmasining g'arbiy qismida joylashgan tortosh dovoni yaqinida 3000 m. balandlikdan kichik soycha sifatida boshlanadi va Muborakka 10 km. yetmasdan qurib qoladi. Shu masofada daryoning uzunligi 332 km, suv yig'adigan avzasining maydoni 8750 km².

Qashqadaryo boshlanish qismidan Varganzi qishlog'igacha «V» shaklidagi vodiy hosil qilib, tor o'zanda tez oqadi. Varganzi qishlog'idan o'tgach, Qashqadaryo vodiysi kengayadi, oqimi sekinlashadi va Qarshi cho'liga kirib boradi. Lekin, Varganzi qishlog'idan Oqsuv irmog'ini qo'shib olgunga qadar

Qashqadaryo vodiysining kengligi 150—300 m dan oshmaydi. Oqsuv irmog'i qo'shilgandan so'ng uning vodiysi kengayib, 800—1500 m. ga yetadi. So'ngra Qashkadaryo vodiysi muttasil kengayib boraveradi, oqimi esa juda sekinlashib, ilon izi bo'lib oqadi. Qarshi shahridan o'tkach Qashqadaryo vodiysi juda ham kengayib ketib, uning chegarasini aniqlash ancha qiyin.

Qashqadaryo qayirlari Dug'oba qishlog'idan quyida kengayib, 300 m. gacha yetadi. Qayirning ba'zi yerlari o'tloqlardan, ba'zi joylari esa shag'allardan iborat. Daryo sersuv bo'lgan yillari bu qayirlarni suv bosib ketadi.

Qashqadaryoga bir necha irmoqlari kelib qo'shiladi. Ularning eng muhimlari (chap tomondan) Jinnidaryo, Oqsuv, Tanxoz, Yakkabog', G'uzor kabi irmoqlaridir. Qashqadaryoning o'ng irmoqlari yo'q, lekin bir necha soy va jilg'alar kelib qo'shiladi.

Qashqadaryo asosan qor suvlaridan to'yinadi. Shu sababli eng ko'p suv sarfi may oyiga, eng kam suv sarfi esa yanvar-dekabr oylariga to'g'ri keladi. Qashqadaryoning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Varganzi qishlog'i yonida sekundiga $5,46 \text{ m}^3$ ni tashnil etadi. Eng kam suv sarfi sekundiga $0,60 \text{ m}^3$, eng ko'p suv sarfi esa sekundiga $98,0 \text{ m}^3$ ni tashkil qiladi.

Qashqadaryo havzasida (hamma irmoqlari bilan) yiliga o'rtacha sekundiga $51,5 \text{ m}^3$ oqim vujudga kelib, uning 58,3% i mart-iyun oylariga to'g'ri keladi. Qashqadaryo havzasida vujudga kelayotgan suvni 100% desak, shuni 75% Oqsuv, Tanxoz va Yakkabog' daryolari zimmasiga to'g'ri kelsa, 22% esa qolgan irmoqlariga to'g'ri keladi. Jinnidaryo, Oksuv, Tanxoz, Yakkabog' va G'uzordaryolar Qashqadaryo xavzasiga kiradi.

Jinnidaryo Qashqadaryoning birinchi ancha sersuv irmog'i hisoblanib, Hisor tizmasining Oqota va SHerdog' cho'qqilari orasidagi buloq va jilg'alardan boshlanib, uzunligi 57 km, suv yig'adigan havzasi 367 km^2 . Bu daryo qor va muz erishidan to'yinib, uning suvi mart iyun oylarida ko'payadi. Daryoning o'rtacha yillik suv sarfi Qalandar qishlog'i yonida sekundiga $1,50 \text{ m}^3$. Uning 68,3% mart-

iyun oylariga, 11,4% iyul-sentyabrga, 20,3% esa oktyabr-fevral oylariga to'g'ri keladi.

Oqsuv daryosining uzunligi 115 km, suv yig'adigan havzasining maydoni 1050 km^2 bo'lib, Hisor tizmasidagi Botirboy va Severtsev muzliklaridan boshlanuvchi Botirboy va Xonaqasuv irmoqlarining qo'shilishidan vujudga keladi. Hisorak qishloqigacha tor o'zanda tez oqadi, so'ngra vodiysi kengayib, qayirlar xosil qiladi. Oqsuvga chap tomondan Gilyandaryo, Qizilyamchak, Tomshush Sutshar o'ng tomondan Qorasuv kabi irmoqlarni qo'shnb oladi. Oqsuv qormuzlarni erishidan to'yinadi. Uning o'rtacha yillik suv sarfi Hazarinov yonida sekundiga $12,3 \text{ m}^3$ bo'lib, uni 48,3% mart-iyunda, 36,1% ni iyul-sentyabrda, 15,6 ni esa oktyabr-fevralda oqizadi.

Tanxozdaryo — uzunligi 104 km, suv yig'adigai maydoni 459 km^2 . Daryo Hisor tog'idagi G'oziko'ldan boshlanib, Sartug'ay irmog'igacha bo'lgan yuqori oqimi Qaranqul nomi bilan yuritiladi. Tanxozdaryo yukori qismida tog' o'zanda shiddat bilan oqadi. Uning eng muhim irmoklari Sarito'qay, SHo'rsoy, Qizilsuv hisoblanadi. Tanxozdaryo xam korlarning erishidan va yer osti suvlaridan to'yinib, o'rtacha suv sarfi sekundiga $4,23 \text{ m}^3$ ni tashkil etib, o'shani 63,6% mart-iyun oylarida, 25,4% iyul-sentyabrda, 11% esa oktyabr-fevralda oqizadi.

Yakkabordaryo. Uzunligi 108 km, xavzasining maydoni 1060 km^2 . Daryo Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlaridan boshlaiib. Tanxoz daryosiga kelib qo'shiladi. Uning asosiy chap irmoklari SHilxazor, Katta Xurson, Qalon, Turnabuloq xisoblanadi. Yakkabordaryo qorlarning erishidan to'yinib, o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga $6,73 \text{ m}^3$, o'ni 61,6% mart-iyunda, 27,8% iyul-sentyabrda, 10,6% oktyabr-fevralda oqizadi.

G'uzordaryo. Uzunligi 86 km, havzasining maydoni 3220 km^2 . G'uzordaryo CHaqchar tog'idzn boshlanuvchi Kattauro va Kichikuru, Ulmas tog'idan boshlanuvchi irmoqlarni qo'shshshshidan vujudga keladi. Daryo qorlarning

erishidan va yer osti suvlaridan to'yinib, yillik suv sarfi sekundiga $5,90 \text{ m}^3$, o'zani 63,9% mart-iyunda, 14,7% iyul-sentyabrda, 21,4% oktyabr-fevralda oqadi. [11]

Viloyatning yuqori (Shahrisabz) mintaqasida gidrografik tizim ancha rivojlangan. Biroq, Qashqadaryo quyi mintaqaga borgan sari uning suvi kamayib boradi va bir vaqtlar Zarafshon daryosigacha borib yetgan bu daryo hozirda Qarshi-Koson atrofida tamoman tugab qoladi.

Qashqadaryoda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida 70-yillarda Qarshi dashti o'zlashtirilishi keng miqyosda olib borilgan. Hozirgi kunda viloyat hududida qator sug'orish inshootlari barpo etilgan: Hisorak, Qalqamin, CHimqo'rg'on, Qamashi suv omborlari qurilgan, G'uzor tumanini asosan Pachkamar suv ombori va G'uzordaryo sug'oradi(2-jadval).

2- jadval

Qashqadaryoning asosiy suv manbaalari

Suv manbalari nomi	Joylashgan joyi	Loyihaviy suv yig'ish hajmi mln. m^3	Foydali suv yig'ish hajmi mln. m^3
Tallimarjon	Nishon tumani	1 525,0	1 400,0
CHimqo'rg'on	Kamashi tumani	500,0	380,0
Pachkamar	G'uzor tumani	260,0	200,0
Xissarak	SHahrisabz tumani	170,0	140,0
Qamashi	Qamashi tumani	25,0	21,8
Dehqonobod	Dehqonobod tumani	18,4	10,0
Qalqama	CHiroqchi tumani	11,3	9,3
Qizilsuv	Qamashi tumani	9,0	5,8
Langar	Qamashi tumani	7,3	3,2
Qorabog'	Yakkabog' tumani	7,5	4,5
Yangiqo'rg'on	Yakkabog' tumani	3,3	3,0
Nug'ayli	Yakkabog' tumani	3,0	0,3
Shurobsoy	Kitob tumani	2,0	1,4

Yirik Qarshi magistral kanali Amudaryodan boshlanadi va qisqa masofada qo'shni Turkmaniston hududidan o'tadi, so'ngra u katta Tolimarjon suv omboriga quyiladi, undan suv qudratli nasos stantsiyalari yordamida 132 metr balandlikka ko'tarib beriladi. Bundan tashqari, cho'l mintaqasi Mirishkor (avvalgi Ul'yanov), Nishon

kanallari suvlari bilan ham sug'oriladi, viloyatning shimoliy qismiga, asosan Chiroqchi tumaniga Zarafshon suvlari Eski Anhor kanali orqali yetib keladi. [4]

Qashqadaryoning yer yuzasida suv kam bo'lsada, lekin yer osti suvining katta zahirasi bor. Bu yerda to'rtlamchi davr, yotqiziqlari orasidan chiquvchi suvlar hozirgi paytda chorvachilikni suv bilan ta'minlashda katta rol' o'ynamoqda. Shuningdek, bo'r, paleogen, neogen davr yotqiziqlari orasidan shifobaxsh issiq ma'danli suvlar topilgan.

Viloyatdagi juda ko'p qishloq, ishchi posyolkalari va shaharlarining suv quvurlari o'sha yer osti suvi hisobiga ishlaydi.

Qashqadaryo gidrogeologik rayonida yer osti suvining ishlatilish miqdori sekundiga 9,8 kubometrni tashkil etadi.

Respublikamizning Shunga o'xshash boshqa hududlarida bo'lganidek, bu yerda ham ko'plab zovurlar (kollektorlar) va to'planib qolgan sho'r, oqova suvlardan tashkil topgan tuz ko'llar bor. Ular ko'proq Qarshi dashtida uchraydi. Demak, bir tomondan kanal va suv omborlari yerlarni sug'orishda xizmat qilsa, obodonlashtirsa, ikkinchi tomondan, zovur va sun'iy ko'lchalar hudud agroekologiyasining noqulayligidan darak beradi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan kollektor-drenaj tizimlarini ta'mirlash, tozalash va yangilarini qurishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu muammo ayniqsa, Qarshi dashti miqyosida joylashgan qishloq tumanlari uchun dolzarbdir.

Qisqacha tahlildan ko'rinib turibdiki, viloyat agroiklimiy sharoitlari hamma joyda ham bir xil emas. CHunonchi, uning yuqori qismida intensiv dehqonchilikni rivojlantirish, bog'dorchilik va uzumchilikni tashkil qilish uchun imkoniyatlar mavjud bo'lsa, quyi – cho'l mintaqasida tabiiy sharoit qadimdan g'alla va chorvachilik uchun qulaylik qilgan. Keyinchalik bu yerda ham sug'orma dehqonchilik, paxtachilik rivojlanib borgan. G'allachilik qisman tog' etaklarida lalmikor dehqonchilik asosida ham tashkil etilgan.

Tuproq resurslari — bu ma'lum bir joydagi, foydalanish shaklidan qat'iyl nazar barcha tuproq qatlamidir. Xosildor tuproqlarga ega bo'lgan xududlarda qishloq xo'jaligini, ayniqsa, dehqonchilikni rivojlantirish ancha yengil va kam xarajat talab etadi. Qashqadaryo tuproq qoplami uning ona jinsiga, relefiga, yer osti suvlarining xususiyatiga va iqlimiga bog'liq holda hudud bo'yicha bir xil tarqalgan emas. Qashqadaryo qayirlarida allyuvial o'tloq, qisman botqoq o'tloq tuproqlar mavjud bo'lsa, sug'oriladigan yerlarda o'tloq-voha, bo'z-voha tuproqlari tarqalgan. Qarshi cho'lida och bo'z tuproqlar, cho'lning sharqiy balandroq qismida esa tipik va to'q bo'z tuproqlar tarqalgan. Qarshi cho'lidagi Do'ltalisho'r, SHo'rsoy, Suxtasho'r kabi botiqlarda sho'rxok tuproqlar uchraydi. Tog'larda tipik va to'q tusli bo'z tuproq hamda jigarrang tuproqlar keng tarqalgan. [5]

O'simlik va hayvonot resurslari ham jamiyat rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'simlik va hayvonot resurslari birgalikda biologik resurslarni tashkil qiladi. Biologik resurslar bu tabiat tarkibidagi inson va jamiyat uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar manbaidir.

Mintaqada asosan kserofit o'simliklar o'sadi. Kogon-Qarshi temir yo'lining janubidagi mustahkamlangan, qumli yerlarda shuvoq, illoq, qora saksovul, quyonsuyak, kizil qandim, efemerlardan sariqbosh, yoliqora; bir yillik o'simliklardan qirqqiz, qumtariq; ko'p yillik o'simliklardan esa chayir, urrochi selin, tuyapaypoq o'sadi. Och bo'z tuproqli yerlarda esa qo'ng'irbosh, rang va kserofit o'simliklardan temir jusan, shuvoq, oq qavrak; sho'rxok o'simliklardan pashmak, sho'ra, Qarshi voxasining atrofidagi taqirli yerlarda buzoqbosh, har xil sho'ralar o'sadi. Tog' oldi qismida esa bug'doyiq, kavrak, qarg'aoyoq, Qashqadaryo qayirlarida qamish, yulg'un, yantoq uchraydi. Tog'lar turli butazor va archazorlarga boy.

Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya va turizm resurslari ham bor. Rekreatsiya maqsadida ajoyib tabiiy landshaft turlaridan, sihatgoh va dam olish zonalaridan foydalanish mumkin. Bunday imkoniyatlar, eng avvalo, viloyatning tog' va

tog'oldi hududlarida ko'p (masalan, Miroqi). Turistik ob'ektlar sifatida esa ko'hna Shahrisabz – sohibqiron Amir Temurning vatani, u barpo etgan tarixiy yodgorliklar (Oqsaroy va b.), eski Nasaf qoldiqlari, g'orlar, Shuningdek, ekoturizm ahamiyatiga molik maskanlar mavjud. Shahrisabz tumanining yuqori qismida Hisor davlat qo'riqxonasi tashkil qilingan; Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Kasbi tumanlarida qadamjo va ziyoratgohlar ham ko'p. [8]

1.3. Qashqadaryo viloyati aholisi va mehnat resurslari.

Qashqadaryo viloyati o'zining aholi soni bo'yicha O'zbekistonda Samarqand va Farg'ona viloyatlaridan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi. U ayni vaqtda, aholi sonining o'sishi jihatidan Surxondaryo viloyati bilan birgalikda mamlakat demografik vaziyatida yetakchilik qiladi: agar O'zbekiston aholisi 1989-2011 yillarda 125,1 foizga o'sgan bo'lsa, Surxondaryoda bu ko'rsatkich 141,5 va Qashqadaryoda 138,8 foizga teng. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu ikki viloyat umumrespublika hozirgi demografik vaziyatini shakllantirishda muhim rol' o'ynaydi.

Aholi soni bo'yicha viloyatda Chiroqchi tumani oldinda turadi (326,0 ming, 2011 yil); Shahrisabz tumanida ham, Shahrisabz shahrini qo'shib hisoblaganda, aholi 306 ming kishi. Shuningdek, Qamashi, Koson, Kitob va Yakkabog' tumanlarining har birida 200 ming kishidan ko'proq aholi bor. Umuman, yuqorida keltirilgan qishloq tumanlari bu jihatdan respublikamizda ham ajralib turadi. Aholi soni faqat Mirishkor va Muborak tumanida 100 ming kishidan oz, xolos (3-jadval).

Viloyat tabiiy geografik muhitiga mos holda aholi uning hududida bir tekis joylashmagan. O'rtacha zichlik 1 km² ga 93 kishi, bu raqam respublika o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 1,5 marta yuqori. Aholi, xususan, Kasbi (237 kishi), Qarshi (218 kishi), Yakkabog' (196 kishi) va Shahrisabz (184 kishi) tumanlarida zich joylashgan, Muborak, Dehqonobod, Mirishkor qishloq tumanlarida zichlik ancha past.

Keyingi yillar maboynida, ya'ni 1989-2011 yillar oralig'ida aholi soni ancha tez ko'payib borgan: Muborak tumanida o'rtacha yillik ko'payish 5,70, Kosonda 4,75 %, Kitob va Nishon tumanlarida 4,10 foizni tashkil qilgan.

3-jadval**Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari haqida ba'zi bir ma'lumotlar (1.01.2011 y.)**

t/r	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Tuman markazi	Maydoni, ming kv km	Aholisi, ming kishi	Aholi zichligi, 1 kv.km/kishi
1	Dehqonobod	31.08.1971	Karashina sh-cha	4,00	120,0	30,0
2	Kasbi	25.12.1968	Mug'lon sh-cha	0,65	154,3	237,4
3	Kitob	25.12.1968	Kitob sh.	1,75	218,2	124,7
4	Koson	29.09.1926	Koson sh.	1,88	230,3	122,5
5	Mirishkor	25.04.2003	Yangi Mirishkor sh-cha	3,21	96,2	30,0
6	Muborak	13.09.1978	Muborak sh.	3,07	70,7	23,3
7	Nishon	06.03.1975	Yangi Nishon sh.	2,11	113,7	53,9
8	Chiroqchi	22.02.1964	Chiroqchi sh.	2,84	322,2	113,4
9	Shahrisabz	29.09.1926	Shahrisabz sh.	1,66	306,2	184,4
10	Yakkabog'	20.09.1926	Yakkabog' sh.	1,10	215,4	195,8
11	Qamashi	31.12.1964	Qamashi sh.	2,66	216,7	81,5
12	Qarshi	04.10.1931	Beshkent sh.	0,91	198,0	217,6
13	G'uzor	29.09.1926	G'uzor sh.	2,65	164,6	62,1
Qashqadaryo viloyati		20.01.1943	Qarshi sh.	28,6	2668,8	93,3

Nisbatan pastroq demografik o'sish Dehqonobod (2,40 %), Qarshi (2,50 %) va Kasbi (2,50 %) tumanlarida kuzatiladi. Shu o'rinda e'tirof etish lozimki, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Muborak tumani respublikamizda eng oldingi o'rinlarni egallaydi. Tuman aholisining bunday tez o'sishi nafaqat tabiiy ko'payish, balki aholi migratsiyasi bilan ham bog'liq (tabiiy resurslarni o'zlashtirish natijasida aholi bu yerga ko'plab ko'chib kelgan).

Yuqori mintaq (Shahrisabz, Yakkabog' va Kitob tumanlari) ko'p jihatdan respublikamizning aholisi zich, xo'jaligi intensiv rivoj topgan voqea va vodiylariga o'xshab ketadi. Shu bilan birga, aholi zichlik ko'rsatkichlari quyi mintaqaning ayrim tumanlarida (Kasbi, Qarshi) ham ancha yuqori.

Viloyatda tabiiy harakat ko'rsatkichlari boshqa hududlarga qaraganda (Surxondaryodan tashqari) sezilarli darajada farq qiladi(4-jadval). CHunonchi, bu yerda tug'ilish koeffitsienti har 1000 kishi aholiga 23,7 kishini tashkil etadi. Eng yuqori daraja 2000 yilda Chiroqchi tumanida bo'lib, u bu yerda yaqin 34 kishiga barobar (O'zbekistonda oldingi o'rinlarda). Muborak tumanida ham tug'ilish ancha yuqori – 30,7 %. Ayni vaqtda umumiy tug'ilish koeffitsienti Shahrisabz tumanida past, Qarshi shahrida esa u 16,7 promille. 2010 yilda ham Chiroqchi tumani tug'ilish koeffitsienti bo'yicha ajralib turadi (28,4 %). Qolgan qishloq tumanlari orasida katta farq kuzatilmaydi, viloyat markazi – Qarshi shahrida tug'ilish 20,4 promille. [2,10]

Qayd qilish lozimki, Qashqadaryoda ham tug'ilish kamayib bormoqda, biroq bu jarayon mamlakatning boshqa viloyatlariga nisbatan asta-sekinlik bilan sodir bo'lmoqda. Surxondaryoda ham xuddi Shunga o'xshash demografik vaziyat, demak, ularning bir iqtisodiy rayonga birlashtirilishi geodemografik omil bo'yicha ham asoslangan. Umuman olganda, jadval tahlili viloyat aholisining tug'ilish darajasida katta tafovutlar ko'rsatmaydi, eng yuqori va eng past ko'rsatkich qishloq tumanlari miqyosida 4,6 % ga barobar, xolos, vaholanki, 2000 yilda bu farq 9,2 promillega teng bo'lgan.

Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari aholisining tabiiy harakati
(promilleda)

t/r	Qishloq tumanlari	2000 yil			2010 yil		
		tug'ilish	o'lim	tabiiy ko'payish	tug'ilish	o'lim	tabiiy ko'payish
1	Dehqonobod	27,9	4,9	23,0	25,2	3,8	21,4
2	Kasbi	28,8	4,2	24,6	25,4	4,0	21,4
3	Kitob	28,3	4,3	24,0	24,7	3,9	20,8
4	Koson	28,1	4,0	24,1	25,3	3,5	21,8
5	Mirishkor	25,5	4,3	21,2	24,9	3,8	21,1
6	Muborak	30,7	4,8	25,9	24,2	4,2	20,0
7	Nishon	27,0	2,8	24,2	26,5	3,6	22,9
8	Chiroqchi	33,8	4,5	29,3	28,4	3,6	24,8
9	Shahrisabz	24,6	4,4	20,2	23,8	3,9	19,9
10	Yakkabog'	27,2	4,1	23,1	24,9	4,0	20,9
11	Qamashi	27,3	4,4	22,9	25,9	4,4	21,5
12	Qarshi	24,7	4,2	20,6	23,9	3,8	20,1
13	G'uzor	28,1	4,8	23,3	24,0	4,4	19,6

Aholi o'lim koeffitsientida ham katta raqamlar qayd etilmaydi. U 2010 yilda Qamashi va G'uzor tumanlarida 4,4 %, Muborakda 4,2 % ko'rsatgan. Aholi tabiiy harakatining yakuni, ya'ni tabiiy ko'payish esa ko'proq tug'ilish darajasi ta'sirida shakllangan, eng yuqorisi Chiroqchida (24,8 %), eng pastsi G'uzorda (19,6 %) qayd etiladi. Shunday qilib, tug'ilishning yuqoriligi, o'lim ko'rsatkichining ancha pastligi viloyatda aholi sonining tez o'sishiga olib keladi.

Migratsiyaning aholi soni o'sishiga ta'siri uncha kuchli bo'lmasada, u salbiy. Masalan, 1997 yilda shahar joylarda migratsiya qoldig'i minus 1440, 1998 yilda 1765 kishini tashkil etgan. Qishloq joylarda bu ko'rsatkich, yuqoridagilarga mos

holda, minus 2910 va 2205 kishi. 2010 yil natijalariga ko'ra, har ming kishi hisobiga Nishon tumaniga 14 kishi kelgan va 10 kishi ketgan, migratsiya qoldig'i 4 kishini tashkil etgan. Qarshi tumanida kelish koeffitsienti 7,4, ketish 3,1 promille, migratsiya natijasi 4,3 promille yoki 0,4 %. Qizig'i Shundaki, Qashqadaryo viloyatining qolgan aksariyat qishloq tumanlarida aholi migratsiyasining natijasi 2010 yilda salbiy bo'lgan: viloyatga kelganlar 3,7, ketganlar 3,9 promille, migratsiya qoldig'i minus 0,2 ‰. Eng katta manfiy ko'rsatkich Kasbi (-4,5 ‰), G'uzor (-2,4 ‰) tumanlarida qayd etiladi. Qarshi shahriga kelganlar va ketganlar ko'rilyotgan yilda teng bo'lgan – 7,8 ‰. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, Quyi mintaqaning ayrim tumanlari aholisi (masalan, Muborak, Kasbi, Nishon, Mirishkor) asosan migratsiya natijasida shakllangan. [12]

Viloyatning umumiy urbanizatsiya darajasi 43,4 % - bu respublika ko'rsatkichidan ancha past (51,6 %). Bu yerda hammasi bo'lib 12 shahar va 123 ta shaharcha bor. Ulardan Qarshi O'zbekistonning 17 katta shaharlari qatoriga kiradi (243 ming kishi), Shahrisabzda 96 ming, Kosonda 63 ming aholi yashaydi; Qamashi va Kitob shaharlarida 37-40 mingdan aholi bor. Qolgan shahar va shaharchalarda aholi soni bundan ozroq.

2009 yilda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturini qabul qilinishi munosabati bilan viloyatning 119 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi 2008 yildagi 24,6 foizga teng bo'lgani holda, u birdaniga 19,0 foizga ortdi. Yangi shaharchalar (agroshaharchalar), ayniqsa Shahrisabz, Qarshi, Kitob va Yakkabog' tumanlarida ko'p. Jumladan, Shahrisabzda bunday unvonga 18 ta, Qarshida 15, Kitobda 14, Yakkabog'da 13 ta qishloqlar ega bo'lgan.

Qashqadaryoning yuqori zonasida joylashgan qishloq tumanlarida intensiv sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan va Shu asosda aholi zich, katta-katta qishloqlar shakllangan. Nisbatan ozroq yangi shaharchalar Mirishkor (3 ta) va Dehqonobod tumanlarida (2 ta) paydo bo'lgan. Yangi shaharchalarni aholi soni bo'yicha eng kattalari: Maymanoq - 15,7 ming kishi, Fazli - 10,5 ming (Kasbi

tumani), Yangi Mirishkor - 15,5 ming, Pomuk - 12,4 ming (Mirishkor), Karlik - 15,6 ming (Muborak tumanida), Karashina – 10,1 ming kishi (Dehqonobod tumani) va boshqalar.

Viloyatda 1046 ta qishloq aholi punktlari mavjud, qishloq fuqarolar yig'inlari 148 ta. Dehqonobod, Qamashi, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarining har birida 100 dan ortiq qishloqlar bor (eng ko'pi Kitob tumanida - 144 ta). Son bo'yicha eng oz qishloqlar Muborak (15 ta), Mirishkor (23 ta) va Nishon (30 ta) tumanlarida. Bu ma'muriy hududlarning barchasi yangi yerlarni o'zlashtirish munosabati bilan tashkil etilgan.

Qishloq aholi va aholi punktlari geografiyasining asosiy xususiyatlari tabiiy sharoit va uning ta'sirida xo'jalik tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi va ixtisoslashtirish bilan tavsiflanadi. Masalan, Shahrisabz guruh tumanlarida nisbatan katta qishloqlar, tog' va tog'oldi hududlarda esa kichikroq qishloqlar joylashgan. 54-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, viloyat qishloq aholi geografiyasini asosan o'rta darajadagi qishloqlar, ya'ni har birida 1000-3000 aholi bor aholi manzilgozlari belgilab beradi. Bunday qishloqlar soni 474 ta yoki jami qishloqlarning 45,4 foizini tashkil qilib, ular viloyat umumiy qishloq aholisining 53,3 foizini o'zida mujassamlashtiradi. Katta qishloqlarning demografik salohiyati esa 21,7 foizga teng. Demak, o'rta va katta qishloqlarda deyarli 4/5 mintaqa aholisi yashaydi. Shu bilan birga qayd etish joizki, 500 kishigacha bo'lgan qishloqlar soni ham kam emas - 175 ta, ammo ularda bor-yo'g'i 4 foizdan ortiq aholi yashaydi, xolos. [3]

Boshqa viloyatlarda bo'lganidek, Qashqadaryo aholisi milliy tarkibida o'zbeklar keskin ajralib turadi – 91,3 %. Ikkinchi o'rinda tojiklar – 4,4 %. Qolgan millat vakillaridan turkman va ruslar ko'proq (2012 y.).

1 yanvar 2012 yilning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryoda mehnatga layoqatli aholi soni 1476 ming kishi. Shundan 1022 ming kishi iqtisodiy faol hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida band aholi 972 ming kishi. 2010 yil yakunlari bo'yicha bir yilda 86,9 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan (asosan qishloq

joylarda). Biroq Shunga qaramasdan, viloyatda, xususan uning aholisi zich tumanlarida mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish va mehnat bozori faoliyatini yaxshilash muhim muammodir. Iqtisodiyotda band aholining katta qismi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi (35-40 %).

II – BOB. QASHQADARYO VILOYATI TABIIY RESURLARIDAN IQTISODIYOTDA FOYDALANISH.

2.1. Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlari rivojlanishida tabiiy resurslardan foydalanish

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan agrar-industrial yo'nalishga ega. Yaqin kelajakda uning industrial-agrar xususiyatini olishiga tegishli imkoniyatlar mavjud. Hozirgi vaqtda viloyat yuksak iqtisodiy salohiyatiga molik bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi, u respublika milliy iqtisodiyotida o'ziga xos "lokomotiv" vazifasini bajaradi. Bu yerda neft-gaz, tog'-kon kimyosi, paxta, g'alla, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish yaxshi rivojlangan. Xususan, neft va gaz, paxta va g'alla yetishtirishda u mamlakatimizda birinchi, kimyoviy mahsulotlar (polietilen va b.) hamda chorvachilik bo'yicha ham oldingi o'rinlarning birini egallaydi.

2012 yil yakunlariga ko'ra, mintaqa yalpi hududiy mahsulotining 40,7 foizini sanoat ishlab chiqarish ta'minlagan (2009 yilda – 46,1 %). Qishloq xo'jaligining ulushi 18,4 %, qurilishniki 7,0; transport va aloqa YaHM-ning 4,5 %, savdo va umumiy ovqatlanish 4,3 foizini ta'minlaydi. Boshqa hududlarda bo'lganidek, bu yerda ham bozor islohotlariga katta e'tibor berilmoqda. Ammo viloyat sanoatini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish o'ziga xos xususiyatga ega. Sababi sanoatning asosan yoqilg'i-energetikaga ixtisoslashganligi, ya'ni strategik ahamiyat kasb etishi tufayli nodavlat sektori bu sohada nisbatan pastroq.

2012 yilda kapital qo'yilmalarning eng katta qismi Muborak (28,0 %) Mirishkor (16,9 %) va tumanlariga to'g'ri kelgan. Shuningdek, G'uzor (12,3 %) tumani va Qarshi shahrining (11,0 %) investitsion salohiyati ham yuqoriroq bo'lgan. Eng so'nggi yillarda Dehqonobod tumanida respublikamizda yagona kaliy zavodini qurish munosabati bilan bu hududga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari ham ortib bormoqda (7,7 %). Shu bilan birga, Chiroqchi, Kasbi, Qamashi, Kitob qishloq tumanlarida 2010 yilda tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar ancha past bo'lgan.

Sanoatining ichki tuzilishi quyidagicha: yoqilg'i sanoatining ulushi (mahsulot qiymati bo'yicha) 75,9 foiz, yengil sanoat – 7,4, oziq-ovqat 4,8, un-krupa, omuxta yem sanoati – 2,8 foiz. Taqqoslash uchun: 2000 yilda yuqoridagi ko'rsatkichlar, mos holda, 56,4; 18,1; 9,2; va 2,6 foizni tashkil qilgan. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, so'nggi 10 yil davomida mintaqa sanoati tarkibida ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish yoki og'ir sanoat tarmoqlari jadal rivojlanib borgan. Bu ham bo'lsa viloyat iqtisodiyotini industriyallashtirishning natijasi sanaladi. Yalpi hududiy mahsulotining ichki tarkibi ham uning iqtisodiyotini tobora industrial-agrar yo'nalishga o'tib borishini asoslab beradi. Jumladan, 2008 yilda yalpi hududiy mahsulotning 33,0 foizi sanoat ishlab chiqarishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2012 yil u 40,7 foizga barobar bo'lgan. Boshqa mintaqalarga qaraganda bu yerda qishloq xo'jaligining ulushi pastroq – 18,4 %, vaholanki, bu ko'rsatkich Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida bundan 2 marta ziyod. Ayni vaqtda bu yerda mashinasozlik sust rivojlangan; kimyo va elektr energetika sanoatiga esa katta e'tibor qaratilmoqda. SHo'rtangaz majmuasi, Dehqonobodda qurilayotgan kaliy zavodi, birinchi navbatida ishga tushirilgan Tolimarjon IES fikrimizga dalil bo'la oladi. Shuningdek, viloyat energetika bazasida Muborak issiqlik energetika markazi ham muhim o'rin tutadi. [2]

Viloyatda jami 116 ta sanoat korxonalari mavjud bo'lib, yiriklari 41 ta. Bir yilda taxminan 1,6-2,0 mln. t neft, 50-55 mlrd. m³ tabiiy gaz, 1,5-2,0 mln. t atrofida gaz kondensati (suyultirilgan gaz), 300 tonnaga yaqin oltingugurt, 129 ming t polietilen, 2 mln. m² ip-gazlama, 146-150 ming tonna paxta tolasi, 20-25 ming tonna o'simlik yog'i, 25-26 mln. shartli banka konserva, 190 ming t un va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Nisbiy ko'rsatkichlarda hisoblaganda Qashqadaryoga O'zbekistonda qazib olinadigan neftning (gaz kondensati bilan birga) 95 foizi, tabiiy gazning 92 va oltingugurtning deyarli 100 foizi to'g'ri keladi (5-jadval). Shu o'rinda qayd etish joizki, avvalgi yillarda mutloq ko'rsatkichlarning ba'zilar ancha yuqori bo'lgan. Masalan, 2000 yilda neft qazib olish 3,6-4,0 mln. t, suyultirilgan gaz 3,5 mln. t, ip-


gazlama 5,0 mln. kv metrdan ziyodroq, konservalar 75 mln shartli bankani tashkil qilgan; faqat paxta tolasi va o'simlik yog'ini ishlab chiqarish bu davrda ko'paygan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, viloyatning yoqilg'i sanoatidagi "siljishlar" respublika umumiy yoqilg'i-energetika sanoati holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, ip-gazlama hamda meva-konservalar ishlab chiqarish hajmining qisqarishini ham ijobiy baholab bo'lmaydi. Paxta hosilining, jumladan, paxta tolasini ishlab chiqarishni ortib borishiga qaramasdan uni qayta ishlash hajmi, ip-gazlama mahsulotlarini tayyorlash ancha katta miqdorda qisqargan. Albatta, bu yerda ham vaziyat qoniqarli emas.

Sanoatning hududiy tashkil etilishida Qarshi, Shahrisabz tugunlari katta ahamiyatga ega; Muborak (IEM, gaz-kimyo majmuasi), Koson (yog'-ekstrakt, paxta tozalash, g'isht zavodi), SHo'rtan (neft-gaz-kimyo), Tolimarjon (IES), Ko'kdumaloq (neft), Chiroqchi (konserva zavodi) va boshqa sanoat punktlarining ahamiyati ham oshib bormoqda. Qarshi, Qamashi va Shahrisabzda to'qimachilik korxonalari ("Oqsaroy - to'qimachi" QK, ipakchilik), aksariyat tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari mavjud (3-chizma).

Viloyatda gaz kondensatini Muborak neft-gaz konlari, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, "SHo'rtan neft-gaz" sho''ba korxonasi, SHo'rtangaz kimyo majmuasi hamda "Hisor neft-gaz" qo'shma korxonalari ishlab chiqaradi. Ularning orasida gaz kondensati bo'yicha Muborak neft-gaz konlari boshqarmasi va SHo'rtan neft-gaz, neft va tabiiy gaz qazib olishda Muborak neft-gaz konlari yetakchilik qiladi. Suyultirilgan gazning yarmiga yaqinini SHo'rtangaz kimyo majmuasi yetkazib beradi, ikkinchi o'rinda SHo'rtan neft-gaz sho''ba korxonasi turadi. Oltingugurtning deyarli 100 foizga yaqinini Muborak gazni qayta ishlash zavodi ta'minlaydi. [4]

Qashqadaryo viloyati iqtisodiy kartasi



5-jadval

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida sanoat ishlab chiqarish fondlarining qiymati bo'yicha ma'lumot

№	Tarmoqlar nomi	O'zbekiston Respublikasi	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Jizzax viloyati	Qashqadaryo viloyati	Navoiy viloyati	Namangan viloyati	Samarqand viloyati	Surxondaryo viloyati	Sirdaryo viloyati	Toshkent viloyati	Farg'ona viloyati	Xorazm viloyati	Toshkent shahri
	Jami sanoat	100	2,4	16,1	6,5	0,8	9,9	19,3	3,4	4,4	1,1	1,1	11,2	4,9	2,7	16,3
	Shu jumladan:															
1.	Elektroenergetika	100	4,7	4,4	5,6	2,7	24,1	4,9	3,0	2,9	3,2	7,5	13,9	4,3	2,5	16,3
2.	Yoqilg'i sanoati	100	4,9	0,4	33,3		51,5		1,1	0,1	1,4	0,0	3,1	3,2	0,1	0,9
3.	Qora metallurgiya	100						0,1	0,3			0,2	85,8			13,7
4.	Rangli metallurgiya	100				0,4		84,9	0,3	0,1			14,0			0,2
5.	Ximiya i neft' ximiyasi sanoati	100		7,8		2,0	0,2	7,7	0,7	4,1			14,9	25,4	0,2	37,0
6.	Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	100	0,4	64,8	0,2	0,1	0,2	0,6	0,4	4,2	0,2	0,3	1,4	0,6	0,8	25,8
7.	O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza-qog'oz sanoati	100	1,3	1,0	1,4	0,6	1,5		1,8	1,7	0,2	0,1	38,5	3,1	0,4	48,4

8.	Qurilish materiallari sanoati	100	5,0	2,0	6,4	1,4	3,3	11,0	3,3	9,3	2,3	0,7	22,5	8,0	2,7	22,2
9.	Oynasozlik va farfor-fayans sanoati	100	4,3			0,1	0,2	0,0	3,3	3,9	0,1		4,5	68,7	0,6	14,3
10.	Engil sanoat	100	2,6	6,4	8,1	1,0	2,9	0,8	19,9	3,6	1,1	1,1	25,8	11,6	3,8	11,3
11.	Oziq-ovqat sanoati	100	1,9	5,6	1,5	1,3	2,4	0,5	3,4	21,7	1,8	2,0	7,1	6,9	14,0	29,7
12.	Mikrobiologiya sanoati	100		27,1					0,1				62,7	9,8		0,3
13.	Un-krupa va kombikorma sanoati	100	8,5	17,5	3,3	3,9	7,0	2,3	4,4	8,2	7,6	3,3	10,4	7,8	11,7	4,1
14.	Medsina sanoati	100			1,6				0,1	0,7	4,2	5,5	24,8	0,3		62,8
15.	Poligrafiya sanoati	100	1,2	0,5	0,7	0,3	0,4	0,3	0,5	0,8	0,5	3,4	1,5	1,7	1,3	86,9
16.	Boshqa sanoat tarmoqlari	100	19,3	0,8	2,7	1,3	0,3	1,1	0,1	4,8	0,0	1,1	1,3	2,7	6,6	57,7

Jami sanoat mahsulotining 16,9 foizi viloyat markazi - Qarshi shahriga to'g'ri keladi. Muborak tumanida sanoat mujassamlashuv ko'rsatkichi bundan ham yuqori – 43,2 foiz. Shuningdek, G'uzor tumanida ham sanoat ishlab chiqarishi yuqori darajada – 26,1 %. Demak, bu ikki qishloq tumani viloyat markazi bilan birgalikda jami sanoat mahsuloti hajmining 86,2 foizini beradi (100- jadval). Qolgan hududlarda sanoat sust rivojlangan. Bu borada biroz Shahrisabz va Koson tumanlari ajralib turadi, Dehqonobodda esa ushbu makroiqtisodiyot tarmog'i yaqin yillarda rivojlanib boradi.

Qashqadaryo viloyati demografik vaziyati, aholisining tez ko'payib borishi xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish ko'lamini oshirishni taqozo etadi. 2010 yilda aholi jon boshiga hisoblaganda iste'mol mollari ishlab chiqarish oldingi yilga nisbatan 108,8 foizga ko'paygan. Agar aholi sonining bu davrdagi 2,2 foizga ortganini hisobga olsak, iste'mol mollari ustuvor darajada ko'payib borishining guvohi bo'lamiz. Ko'rilayotgan yilda mebel, xo'jalik sovuni, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, mineral suv ishlab chiqarish hajmi ancha ko'tarilgan. Xususan, trikotaj mahsulotlari tez ko'paygan (2010 yilda 2009 yilga nisbatan 4,8 marta). Biroq o'simlik yog'i 2008 yildagi 35,1 ming tonnadan 2010 yilda 18,6 ming tonnaga kamaygan.

XIM ishlab chiqarish bo'yicha Qarshi shahri, Shahrisabz va Koson tumanlari oldinda. Aynan Shu hududlarda yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari yaxshiroq rivojlangan. Ularning hissasiga 76,2 % viloyatda olingan XIM to'g'ri keladi (jumladan, Qarshi shahriga – 40,9 %). Bu soha, ayni paytda Dehqonobod, G'uzor, Kasbi tumanlarida juda sust. [12]

2.2. Tabiiy resurslarning viloyat qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi ahamiyati.

Viloyatda agrar soha ham yaxshi rivojlangan. 2012 yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda yaratilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti oldingi yilga nisbatan 3,4 foizga ortgan (2010 yilda 7,1 foizga). Jami mahsulot hajmida dehqonchilik 52,7

foizni tashkil qiladi. Umumiy hajmda mintaqa O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotining 8,1 foizini beradi.

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2857 ming ga, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 2195 ming ga yoki jami maydonga nisbatan 76,8 %. Sug'oriladigan yerlar 461 ming ga yoki jami qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 21,0 foizi demakdir. Bunday yerlar ulushi eng yuqori Kasbi tumanida - 90,8 %; ikkinchi o'rinda Qarshi tumani turadi - 66,4 %. Muborak, Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va, ayniqsa, Dehqonobod tumanida u juda past (atigi 1,0 foizga yaqin).

Jami ekin maydoni 682,7 ming ga, uning 2/3 qismiga yaqini fermer xo'jaliklarida. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida ekin maydonlari 31,1 foizni tashkil qiladi. Bu xususda Kasbi (87,0 %), Chiroqchi (51,2 %), Qarshi (67,0 %) tumanlari oldinda, Muborak (13,1 %), Dehqonobod (15,9 %) va Mirishkor (20,0 %) oxirgi o'rinlarda turadi. Dehqonobod tumani qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 82,6 foizi yaylov va pichanzor bilan band. Muborak, Mirishkor, G'uzor tumanlarida ham bunday yerlar ko'p (6-jadval).

2010 yil yakunlari bo'yicha viloyatda jami ekilgan maydonlar 493 ming ga bo'lgan. Shundan donli ekinlar 250 ming ga, yalpi hosil 983 ming tonna. Shu yilda 218 ming gektarga bug'doy ekilgan; yalpi hosil 921 ming tonna, hosildorlik 40,4 ts/ga (2009 yilda 982 ming t., hosildorlik 44,7 ts/ga). Hosilning 86,4 foizi fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Bug'doy barcha tumanlarda, Shuningdek, Chiroqchi, Qamashi va Yakkabog' tumanlarida lalmikor yerlarga ham ekiladi.

Qishloq xo'jaligining ikkinchi yetakchi ekini - paxta 168 ming gektarni egallaydi (2008 yilda 173 ming ga, 2000 yilda 150 ming ga). 2010 yilda 435 ming tonna paxta yetishtirilgan, bu oldingi yilga qaraganda qariyb 35 ming tonnaga ko'p, hosildorlik 25,8 ts/ga (2008 yilda - 26,0 ts/ga). Ma'lumki, g'alla va paxta yetishtirish bo'yicha Qashqadaryo respublikamizda birinchi o'rinda turadi.


6-jadval

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibi (01.01.2012 y.)

Qishloq tumanlari	Maydoni, ming ga	Qishloq xo'jaligida foydalanila- digan yerlar, ming ga	Shu jumladan sug'orila- digan yerlar, ming ga	Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarga nisbatan, foizda:			
				ekin yerlar	ko'p yillik daraxtzorlar	bo'z yerlar	pichanzor va yaylovlar
Dehqonobod	395,7	279,8	2,2	15,9	0,2	1,3	82,6
Kasbi	73,5	51,1	46,3	87,0	3,7	-	9,3
Kitob	174,2	102,7	16,0	21,3	7,0	1,4	70,3
Koson	188,1	143,9	66,4	51,0	1,7	1,8	45,5
Mirishkor	312,5	277,3	58,5	20,0	0,5	0,7	78,8
Muborak	307,0	261,8	33,0	13,1	0,3	-	86,6
Nishon	211,1	156,3	53,9	33,2	1,3	-	65,5
Chiroqchi	283,7	240,7	25,4	51,2	1,2	3,4	44,3
Shahrisabz	166,7	102,7	22,1	24,4	4,4	0,4	70,8
Yakkabog'	134,9	100,2	29,6	39,0	5,0	2,2	53,8
Qamashi	245,7	179,0	30,3	35,1	1,1	0,4	63,3
Qarshi	91,7	65,9	43,8	67,0	4,2	1,3	27,5
G'uzor	265,2	231,9	32,8	26,6	0,4	0,3	72,7
Viloyat bo'yicha	2856,8	2195,3	461,4	31,1	1,6	1,0	66,3

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jalik ekinlarining tarkibi

Qishloq xo'jaligi



Kartoshka 6,2 ming gektar yerga ekilgan, yalpi hosil 98 ming t; sabzavot maydoni 14,4 ming ga, xosil 321,5 ming t, poliz ekinlari 6,3 ming ga va yalpi hosil 86,1 ming t. Yem-hashak ekinlari 39,6 ming gektarni egallaydi, uning yarmidan ko'prog'i beda bilan band. Mevalar maydoni 10,7 ming ga, yalpi hosil 73,5 ming t. Bog'dorchilik tog' va tog'oldi hududlarda joylashgan (Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, Qamashi va b.) tumanlarda rivojlangan. Bu yerlarda uzum yetishtirish ham yo'lga qo'yilgan, uning umumiy maydoni 6,9 ming ga, hosil 50 ming t. Kitob tumani o'zining anorlari (Varganza va b.), Kasbi tumani bodomzorlari bilan (Maymanog) mashhur.

Viloyatda 1040,9 ming bosh qoramollar, 3233 ming bosh qo'y va echkilar bor (bu borada ham Qashqadaryo birmuncha oldinda). Mintaqa agrosanoat majmuida 179 ming t tirik vaznda go'sht, 657 ming t sut, 195,1 mln. dona tuxum, 4,4 ming t jun, 99,5 ming dona qorako'l terisi, 2,8 ming t pilla olinadi (2012 y.). Taqqoslash uchun ba'zi ma'lumotlar (2000 yilda): umumiy ekin maydoni 461 ming ga yoki respublikaga nisbatan 12,2 %, g'alla maydoni 202 ming ga (respublikada birinchi o'rinda), paxta maydoni 150 ming ga, yem-hashak maydoni 55 mingga, yirik shoxli qoramollar soni 580 ming bosh, qo'y va echkilar 1,9 mln. bosh, qorako'l terisi 110 ming dona, pilla 1,8-1,9 mln. t.

Qishloq xo'jalik geografiyasida Koson (10,7 %), Chiroqchi (10,9 %) tumanlari yetakchi, Dehqonobod va Muborak tumanlari orqada. Aholi jon boshiga hisoblaganda yuqori ko'rsatkichlar Nishon, Kasbi tumanlarida, eng pastlari esa SHaxrisabz va Dehqonobod tumanlarida qayd etiladi.

Viloyatda jami 7139 ta fermer xo'jaliklari mavjud, ularga 734 ming ga yer biriktirilgan va 408,3 ming kishi ishlaydi. Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida fermer xo'jaliklarining hissasi o'rtacha 41,9 % (respublikamiz miqyosida ancha yuqori). Bu ko'rsatkich Dehqonobodda juda past (3,4 %), Nishon, Mirishkor tumanlarida esa u eng baland (60,9 va 61,5 %). Hududiy farqlar asosan agrar sohaning ixtisoslashuviga bog'liq. Odatda, dehqonchilik, xususan paxta ekishda fermerlar yetakchilik qiladi. [2]

Yer maydonlari va ularda ishlaydigan xodimlar soni ham bir xil emas. Masalan, Muborak tumanida 1 ta fermerga 181,2 ga yer va 16,3 kishidan ishchi xodimlar to'g'ri keladi (viloyatda o'rtacha 104,1 va 15,2 kishi). Kitob tumanida bu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 41,9 va 10,4; Mirishkor tumanida 119,1 va 14,6. Intensiv sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda fermer xo'jaliklarining yer maydoni kam, ishlovchilar soni esa ko'proq bo'ladi. Jumladan, Kasbi tumanida har bir fermer xo'jaligiga 8,7 gektar yer biriktirilgan bo'lib, ularda o'rtacha 21,6 kishi ishlaydi, vaholanki, Dehqonobodda bu ko'rsatkichlar 118,9 va 4,7 kishini tashkil qiladi. Shu o'rinda e'tiborga olish zarurki, mamlakatimizda olib borilayotgan fermer xo'jaliklarini optimallashtirish siyosatini amalga oshirish natijasida ularning soni keskin qisqardi, biriktirilgan yer maydonlari esa keskin ko'paydi.

Hududiy ixtisoslashuv jihatidan qaralganda, Yuqori zonada yoki Shahrisabz guruh tumanlarida paxtachilik, bog'dorchilik va g'allachilik, Quyi zonada, ya'ni Qarshi dashtida paxtachilik rivojlangan. CHorvachilik, xususan, qo'y va echkilarni boqish cho'l va tog'oldi hududlarda ko'proq tarqalgan. Viloyat markazi hamda Shahrisabz atrofida shahar atrofi qishloq xo'jaligi, sabzavot va kartoshka, ko'katlar yetishtirish bilan shug'ullanadi.

III- BOB. «QASHQADARYO VILOYATI TABIIY RESURLARIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

3.1.Tabiiy resurslardan iqtisodiyotda samarali foydalanish muammolari

Qashqadaryo viloyati respublikamizning tabiiy resurs imkoniyati yuqori bo'lgan mintaqalaridan biri hisoblanadi. Har bir mintaqada bo'lgani kabi Qashqadaryoda ham tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha bir qator muammoli holatlar yuzaga kelmoqda.

Birinchi navbatda, yer resurslari bilan bog'liq muammolar o'z dolzarbligi bilan ajralib turmoqda. Chunki, sanoat rivojlanish darajasi yuqori bo'lishiga qaramay viloyat iqtisodiyoti uchun qishloq xo'jaligi, ayniqsa, qishloq xo'jaligi katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblangan dehqonchilikni rivojlantirishga tuproq tarkibining xilma-xilligi ta'sir ko'rsatadi. Viloyat tuproqlari tarkibi asosan o'tli, tipik va kulrang tuproqlardan iboratdir. Ular unumdor bo'lib, ko'p miqdorda o'simlik uchun to'yimli moddalarga ega.

Tuproqlarning muhim xususiyati ularning ishlab chiqarishga qobilligi, ya'ni madaniylashganligi bo'lib, viloyatning ko'proq, avvaldan sug'orib kelinayotgan, yuqori darajada mdaniylashgan yerlari doimiy ravishda organik va mineral o'g'itlar solinganligi tufayli fosfor, azot bilan yaxshi ta'minlangan. Tarkibi chirindi va mikroorganizmlarga boy.Yuqori madaniylashgan yerlar asosan Qashqadaryo viloyatining sharqiy, janubi-sharqiy, markaziy qismlarida, SHaxrisabz, Kitob, Yakkabog', Qamashi, Koson va Qarshi tumanlarida joylashgan. [12]

O'rta darajada madaniylashgan butun sug'oriladigan yer fondining asosiy qismini tashkil etadi. Ularga eskidan sug'orilib kelingan, o'tmishda dehqonchilik madaniyati darajasi nisbatan past bo'lgan yerlar hamda Qarshi cho'lidagi yangi o'zlashtirilgan yerlarning uncha katta bo'lmagan qismi kiradi.

Qarshi cho'lining yangi o'zlashtirilgan va sug'orilayotgan yerlari oziqa moddalarining kamligi, tuproq tarkibining chirindilik darajasi ozligi va biologik

faolligining sustligi bilan ajralib turadi. Bu yerlarda, odatda, eroziya xavfi ancha yuqori.

Ma'lumki, yer resurslarining sifati bonitet bali bilan belgilanadi. Eng hosildor yerlar SHaxrisabz (bonitet bali 72), Yakkabog' (60) va Kasbi (64) tumanlardadir. Muborak va Dehqonobod tumanlarida yerning hosildorligi eng past (ikkala tumanda ham bonitet bali 41ga teng).

So'nggi 4-5 yil ichida davlatning agroiqtisodiy siyosati tufayli yer resurslarining ahvoli birmuncha yaxshilandi. CHunonchi, 2000 yilda tarkibida tuz miqdori yuqori bo'lgan yerlar 168,6 ming gektar, yoki viloyatdagi barcha ekin maydonlarining 36, 6%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatkich 56 ming gektargacha pasaydi va barcha ekin maydonlarining 11,5%ga teng bo'ldi.

Qashqadaryo viloyati tog' va tog'oldi yerlaridan samarali foydalanish salohiyati nisbatan yuqoriligini ko'rish mumkin. Ulardan oqilona foydalanish istiqbolda hududning oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatining jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Tog' va tog' oldi hududlarida qulay tabiiy iqlim sharoiti hamda noyob tarixiy ob'ektlarning mavjudligi esa kelajakda mintaqada turizm sohasini rivojlantirishga ham imkoniyat yaratadi.

Respublikamiz suv resurslari ichida Amudaryo basseyni 37 mlrd m³ suvni o'zida jamlaydi. Qashqadaryo viloyatiga Amudaryo suv resurslarining 18,2% to'g'ri keladi, uning 67,4 foizi asosiy oqimdan (Amudaryo), 25,7% - kichik daryolardan, 2,3% - yer osti suv manbaalaridan kelib tushadi. Ta'kidlash o'rinliki, 2000 yildan beri respublikamizda, jumladan, Qashqadaryo viloyatida suv resurslarining taqchilligi sezilmoqda, qishloq xo'jaligi ekinlari sug'orishning tejamkor texnologiyalaridan yetarlicha foydalanilmayapti. SHu bilan birga, tabiiy o'zanlarda daryoning yuqori qismlarida joylashgan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan suvning ifloslanishi hisobiga uning sifati yomonlashib bormoqda. Bularning barchasi tobora keskinlashib borayotgan suv taqchilligi va katta talofatlar sharoitida yuz bermoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda sug'orish tizimlarining foydali ish

koeffitsienti ayni paytda 0, 64ga teng, dalalarda esa tortib kelinadigan suvning 20-30%dan samarasiz foydalanilmoqda. [7]

Yuqorida ko'rib o'tilgan viloyatning yer va suv resurslari orasida juda katta nomuttanosiblik mavjud. Geomorfologik va tuproq sharoitlariga ko'ra 1,3 – 1,5 mln.ga maydon sug'orma dehqonchilik uchun yaroqlidir. Ammo bunday katta maydonda sug'orib dehqonchilik qilish uchun mahalliy suv resurslari juda kamlik qiladi. Bevosita viloyat hududida vujudga keladigan suv resurslarining miqdori 1,3 km³ ga yaqin bo'lib, o'rtacha har bir kishiga bir yilga 575 m³ ni tashkil etadi. Hisoblarga ko'ra viloyatning mahalliy suv resurslari ularga bo'lgan ehtiyojning 21-22%ini qondiradi.

Viloyatda suv resurslarining taqchilligi mamlakatimizning boshqa hududlaridagi kabi sug'oriladigan yerlar maydonlarining kengayishini va sanoatning suvga ehtiyoji yuqori bo'lgan sanoat ishlab chiqarishini cheklaydi. Sanoatning kam suv iste'mol qiladigan tarmoqlarini rivojlantirish va qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish zaruriyatini taqazzo etadi. Ekologik muvozanatni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri an'anaviy yonilg'ich resurslarini tejash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishdir. Bu boradagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzurida "Eko-energiya" markazi faoliyat yuritmoqda. Ushbu markaz mutaxassislari ishtirokidagi loyihalar doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent viloyatlarida fotoelektr stansiyalari, elektr energiyasi va issiqlik olish uchun kichik GESlar va gelioisitgichlar, chorvachilik, sanoat va maishiy chiqindilardan biogaz, ekologik toza va yuqori samarali bioorganik o'g'it olish qurilmalari barpo etildi. Bugungi kunda ulardan amalda samarali foydalanilmoqda. [7]

Qo'riqxon va milliy bog'lar tabiatning o'ziga xos tabiiy manzaralarini, o'simlik va hayvonot turlarini muhofaza qilish maqsadida tashkil qilinadi. Viloyat hududida bitta qo'riqxon mavjud. Kitob davlat qo'riqxonasi Zarafshon tog'ining yonbag'ri, Xojiqo'rg'on soyining chap qirg'og'ida 1979 yil tashkil etilgan. Maydoni 5378 ga.ga teng bo'lib, yeryuzasi o'rta balandlikdagi tog'lardan iborat (1500-2000 m).

Iqlimi quruq subtropiklarga xos bo'lib, kontinental xarakterga ega. Yanvar harorati – 5°S , iyulniki $+18^{\circ}\text{S}$. Yog'in miqdori 600 mm atrofida. Xususiyatiga ko'ra respublikamizdagi yagoga geologik qo'riqxon hisoblanadi. Bu yerda 300-400 mln. yil ilgari yashagan hayvonlarning izlari, tog' jinslari bilan bir qatorda "Qizil kitob"ga kiritilgan noyob o'simlik turlari – ulug'vor yunona, ulug' tog' lolasi, sharq chinori, anzur piyoz, Zarafshon archasi, qizilcha, shirach, hashoratlardan beshiktevratar, Turkiston ko'zoynakli iloni, echkamar, toshbaqa, burgut, kaklik va boshqa turdagi hayvonlar ham qo'riqlanadi.

Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan foydalanish oqibatida bir qator muammolar shakllangan. Yechimini kutayotgan bu muammolar jumlasiga yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, tog'li hududlar tabiatini muhofaza qilish, atrof-muhitni ifloslanishdan asrash, mineral xom ashyo resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, landshaftlarni rekul'tivatsiya qilish (qayta obodonlashtirish) kabilar kiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda viloyat rahbariyati tomonidan zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqarilish talab etilmoqda.

3.2. «Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan iqtisodiyotda foydalanish» mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslari uning iqtisodiyoti rivojida muhim ahamiyatga egaligi yuqoridagi boblarda tahlil etib o'tildi. Viloyat tabiiy resurslari bilan bog'liq mavzular maktab geografiya kurslarida 7-sinf "O'rta Osiyo tabiiy

geografiyasi. O'zbekiston tabiiy geografiyasi" kursining "Qashqadaryo", 8-sinf "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" kursining esa "Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayoni" mavzularida ko'rib chiqiladi. Agar 7-sinf darsligida viloyat tabiiy resurslariga umumiy tavsif berib o'tilsa, 8-sinf darsligida esa ulardan iqtisodiyotda foydalanilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish holati o'rganib chiqiladi. Bitiruv malakaviy ish mavzusidan kelib chiqqan holda dars ishlanmasi 8-sinf "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanining "Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayoni" mavzusi asosida tayyorlandi. Ushbu mavzu ikki soatga mo'ljallangan bo'lib, birinchi soatida aynan iqtisodiy geografik rayon geografik o'rni, tabiiy sharoiti yoritilishi bilan bir qatorda uning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik holati ham o'rganib chiqiladi.

Mavjud tabiiy resurslar, ulardan iqtisodiyotda oqilona foydalanishning o'ziga xos jihatlar haqida o'quvchilarga bilim berishda bir qator pedagogik usullardan foydalanish mumkin. Fikrimizcha, Qashqadaryo viloyati geografik o'rni, tabiiy sharoiti haqida ma'lumot berilib, o'quvchilarda tabiiy resurslar, ular bilan viloyatning ta'minlanish darajasi haqidagi 7-sinfda olingan bilimlarini "Aqliy xujum" orqali tekshirib olinganligi maqsadga muvofiq bo'ladi. [8]

Ma'lumki, **"Aqliy xujum"** – *muayyan o'quv predmetining dasturidan kelib chiqqan har bir muammo yechimini o'quvchilar jamoasiga havola qilib, ular tomonidan bildirilgan fikrlarni to'plab shu asosda ma'lum bir yechimga kelinadigan usuldir.*

"Aqliy hujum" usuli pedagog tomonidan qo'yilgan quyidagi maqsadlarni amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu usul o'quv jarayoniing kirish qismida amalga oshiriladi;
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda, yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda, asosiy mavzuni o'tib bo'linganidan so'ng amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” usulini qo’llashdagi asosiy qoidalar:

- O’quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar tanqid qilinmaydi va baholanmaydi;
- Bildirilgan har qanday fikr, u xattoki noto’g’ri bo’lsa ham inobatga olinadi;
- Fikr berishda har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Bu usulning bosqichlari quyidagilar;

1. Ta’lim oluvchilarga muammoli savol qo’yiladi va ularga shu savol bo’yicha o’z fikrlarini bildirishlari so’raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savolga nisbatan o’z fikrlarini bildiradilar;
3. Ta’lim oluvchilarning fikrlari doskaga yozib boriladi;
4. Bildirilgan fikrlarning ma’lum belgilari bo’yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo’yilgan savolga aniq va to’g’ri javob tanlab olinadi va qolgan javoblarga sharh beriladi.

“Aqliy xujum” usulini qo’llashdan maqsad – o’quvchilarning Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslari haqida ega bo’lgan bilimlarini sinab ko’rishdan iborat. SHuning uchun ushbu usul darsning yangi mavzuga o’tish qismida amalga oshiriladi. SHu orqali 7-sinfda berilgan bilimlar darajasi aniqlanib, shu asosda keyingi jarayonda qaysi usulni qo’llash mumkinligi aniqlab olinadi. Masalan, keyingi bosqichda “Yo’naltiruvchi matn” usulidan foydalanish mumkin.

“Yo’naltiruvchi matn” – ta’lim oluvchilardan mustaqil ravishda yo’naltiruvchi savollar yordamida ma’lumot yig’ish, o’quv jarayonini rejalashtirish va uni amalga oshirish vazifasini bajaradigan usul.

Bu usulning barcha bosqichlarida pedagog faoliyati “passiv”, ta’lim oluvchilar faoliyati esa “aktiv” bo’ladi. CHunki ta’lim oluvchilar pedagog tomonidan oldindan tayyorlangan materiallar asosida mustaqil ravishda faoliyat ko’rsatadilar. “Yo’naltiruvchi matn” usulidan o’quv amaliyoti mashg’ulotlarida foydalanish darsning ta’limiy maqsadiga erishishda katta yordam beradi.

Ma'lumot yig'ish, rejalashtirish faoliyatni amalga oshirish va faoliyat yakunini tekshirish bosqichlarida ta'lim oluvchi mustaqil ishlaydi. Qaror qabul qilish va xulosa qilish bosqichlarida ta'lim oluvchilar va pedagog orasida "qaytar aloqa" o'rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. O'quv mashg'ulotining boshlang'ich bosqichida ta'lim oluvchilarga pedagog tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunday hujjatlar tarkibiga texnik chizmalar, jadvallar, yo'naltiruvchi savollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshqalar kiradi.

"Yo'naltiruvchi matn" usulida pedagog va ta'lim oluvchilar faoliyati quyidagilardan iborat:

7-jadval

Pedagog faoliyati	Ta'lim oluvchilar faoliyati
1. O'quv materiali va yo'naltiruvchi savollar berish	1. Mustaqil ravishda ma'lumot yig'ish
2. Oldindan tayyorlangan rejalashtirishga oid varaqalarni tarqatish	2. Mustaqil ravishda reja tuzish
3. Takliflarni muhokama qilish	3. Mustaqil qaror qabul qilish
4. Muammolarni muhokama qilish	4. Mustaqil amalga oshirish
5. Baholash varaqalarini birgalikda ishlab chiqish	5. Mustaqil ravishda tekshirish
6. Birgalikda xulosa chiqarish	6. Mustaqil ravishda xulosalash

"Yo'naltiruvchi matn" usulining tuzilmasi:

1. Topshiriq berish.
2. Mustaqil ravishda ma'lumot yig'ish.
3. Mustaqil ravishda rejalashtirish.
4. Birgalikda qaror qabul qilish.
5. Mustaqil ravishda amalga oshirish.

6. O'z-o'zini tekshirish.
7. Birgalikda umumiy xulosa chiqarish.

“Yo'naltiruvchi matn” usulining bosqichlari:

1. Pedagog topshiriqlarni, tarqatma materiallarni va yo'naltiruvchi savollarni ishlab chiqadi.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar va yo'naltiruvchi savollar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar va “yo'naltiruvchi matn” tuzadilar.

3. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda o'zi tuzgan “mustaqil matn” asosida ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar tomonidan ish bosqichlari, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligi, material, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar rejalashtirilishi lozim.

4. Ta'lim oluvchilar pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishilgan natijalar muhokama qilinadi. Ta'lim oluvchilar bajariladigan ishlar ketma-ketligi bo'yicha qaror qabul qiladilar, pedagog esa faqat maslahatchi sifatida ishtirok etadi.

5. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda yakka tartibda yoki guruhlar ishtirokida amalga oshiradilar. Bu bosqichda ta'lim oluvchilarning amaliy ko'nikmalari shakllanadi. Pedagog topshiriq bajarilishini “Nazorat varaqasi”ga qayd etib boradi.

6. Ta'lim oluvchilar o'zlarining ish natijalarini o'zlari tekshiradilar va “Baholash varaqasi”ni to'ldiradilar. “Baholash varaqasi”da sifat mezonlari, ya'ni talab etilgan me'yorlar beriladi va ular erishgan natija bilan taqqoslanadi.

7. Pedagog va ta'lim oluvchilar birgalikda ish jarayonini va erishilgan natijalarni yakuniy suhbat davomida tahlil qiladilar. Ushbu suhbatda barcha ta'lim oluvchilarning ish natijalari baholanadi va kelajakda ish jarayonida nimalarga e'tibor berishi kerakligi ta'kidlanadi. [8]

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun “Klaster” usulidan foydalanish mumkin.

Klaster (g'uncha, bog'lam) usuli – didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyotiy muammo yoki mavzu xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beruvchi pedagogik usul.

Mazkur usul turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqadorlik to'g'risida fikrlash imkonini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" usuli aniq ob'ektga yo'naltirilgan fikrlash shakli hisoblanadi. Ushbu usul muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Klaster" usuli puxta o'ylangan ta'lim strategiyasi bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Usul guruh asosida tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan fikrlarning majmui tarzda namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkonini yaratadi.

"Klaster" usulidan foydalanishda quyidagi sharoitlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimani o'ylagan bo'lsangiz shuni qog'ozga yozing. Yozuvingizning orografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang. Fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmang, ularni shunchaki yozib boring.

2. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishni to'xtatmang. Agar ma'lum muddat bir fikrni o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biron narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi fikr tug'ilguncha davom ettiring.

3. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi fikrlarni ilgari surish hamda mazkur fikr o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ko'rsatishga harakat qiling. Fikrlar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatishni cheklamang.

"Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan iqtisodiyotda foydalanilishi" mavzusi yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlashda 8-sinf "O'zbekiston iqtisodiy va

ijtimoiy geografiyasi” fanining “Qashqadaryo iqtisodiy-geografik rayoni” mavzusi asos qilib olindi. Mazkur iqtisodiy-geografik rayonga bag’ishlangan mavzu ikkita – 57 va 58 darslarda o’rganib chiqiladi. Biz BMI mavzusi mazmunidan kelib chiqqan holda uning birinchi qismi – “Qashqadaryo iqtisodiy-geografik rayoni” (57-dars) mavzusini tanlab oldik. Uni o’qitish bo’yicha o’quvchi egallashi zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malaka quyidagilardan iborat(8-jadval).

8-jadval

“Qashqadaryo iqtisodiy-geografik rayoni” mavzusini o’qitish bo’yicha o’quvchi egallashi zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malaka tasnifi

Bilim	Ko’nikma	Malaka
Respublikaning asosiy yoqilg’i bazasi ekanligini, sanoatning ixtisoslashgan tarmoqlari va markazlarini, energetika-kimyo majmui haqida bilish	Yozuvsiz xaritaga asosiy foydali qazilma konlarini, sanoat markazlarini tushira olish	Rayonning iqtisodiy geografik o’rniga baho berish

Mazkur mavzuni o’qitishda noan’anaviy usullardan foydalanilgan quyidagi dars ishlanmasini taklif etish mumkin: [10]

Dars № 57

Mavzu: Qashqadaryo iqtisodiy-geografik rayoni

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad:

O’quvchilarda tabiiy resurslar, ularning turlari haqidagi bilim va tasavvurlarni shakllantirishda davom etish; Qashqadaryo viloyati haqidagi bilimlarni eslatish; Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan iqtisodiyotda

foydalanish haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, yangi geografik atamalar bilan tanishtirish;

b) tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash; tabiiy boyliklarni ko'z qorachig'iday asrash, bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda ma'suliyat sezish, ko'nikmalarini tarkib toptirish.

c) rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, nutq madaniyatini o'stirish.

Darsning jihozi:

O'zbekiston tabiiy va iqtisodiy kartalari, 8-sinf o'quv atlas, rasmlar, 8-sinf geografiya darsligi.

Texnik vositalar:

Kompyuter, proektor, slaydlar.

Dars tipi: Aralash.

Dars turi: Noan'anaviy.

Dars metodlari: "Aqliy hujum", "Yo'naltiruvchi matn".

Dars rejasi:

1. O'qituvchining kirish so'zi
2. "Aqliy xujum" usuli orqali o'quvchilar ega bo'lgan bilimlarni tekshirish.
3. "Yo'naltiruvchi matn" usulini qo'llash uchun o'quvchilarni guruhlariga bo'lish.

4. Yangi dars bayoni.
5. “Klaster” usuli yordamida yangi mavzuni mustahkamlash.
6. Mavzuni mustahkamlash.
7. O`quvchilarni baholash
8. Uyga vazifa

Darsning tashkil etilishi:

O`qituvchi dars boshlangach, sinf xonasiga kirib, o`quvchilar bilan salomlashadi. Sinf jurnali bo`yicha darsda o`quvchilarning qatnashish darajasini aniqlab oladi. SHundan so`ng o`tgan dars yuzasidan o`quvchilarga berilgan uygi vazifalarni tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan “Aqliy xujum” uyushtiriladi. U orqali ta`lim oluvchilarning 7-sinf darslarida Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayoni tabiiy resurslari haqida qanday bilim va ko`nikmalarga ega ekanliklari aniqlanadi. Ushbu usulning dars boshida qo`llanilishiga asosiy sabab o`rganilayotgan iqtisodiy rayon oldingi sinfda “Qashqadaryo o`lkasi” mavzusida ko`rib chiqilgan bo`lib, unga jami ikki soat ajratilgan edi. Bu mashg`ulotlar vaqtida Qashqadaryo o`lkasining geografik o`rni, rel`efi va asosiy tog`larini, iqlimining asosiy xususiyatlarini, daryolari ularning to`yinishi va xalq xo`jaligidagi ahamiyati bo`yicha bilimlar berilgan bo`lib, xarita yordamida o`lkadagi tog`larning orografik tuzilishini chiza olish ko`nikmasi hosil qilish vazifasi yuklatilgan. SHu bilan birga ta`lim oluvchilar Qarshi, Jom, Malik, Qarnob, Nishon cho`llarini xaritadan ko`rsatib berish hamda o`lkaning tabiat mintaqalari, Hisor tog` qo`riqxonasi haqida gapirib bera olish kabi malakaga ega bo`lishlari kerak edi.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan holatlarni e`tiborga olib “Aqliy xujum” usulini qo`llagan holda o`quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Қашқадарё вилояти республикамизнинг қайси қисмида жойлашган?

2. Вилоят қандай табиий географик ўлкалар таркибига киради?

3. Ўзбекистон сиёсий картасидан вилоятга чегарадош республика вилоятлари ва қўшни давлатларни кўрсата оласизми?

4. Айтингни, Қашқадарё ҳудудидида қандай турдаги табиий ресурслар мавжуд?

5. Вилоят ҳудудидидақандай турдаги минерал ресурслар учрайди?

6. Қашқадарё ҳудудидида жойлашган қандай сув манбааларини биласиз?

7. Қайси турдаги табиий ресурслардан иқтисодиётда кенг фойдаланилади?

8. Табиий ресурслардан фойдаланиш билан боғлиқ вилоятга хос қандай муаммоларни биласиз?

Yangi mavzu bayoni: Qashqadaryo iqtisodiy-geografik rayoni

“Yo’naltiruvchi matn” usulini qo’llash uchun o’quvchilarni guruhlarga ajratadi. O’quvchilar tanlagan emblemalari orqali guruhlarga bo’linib, stollarga o’tirishadi.

I-guruh. Qarshi.

II-guruh. Shahrisabz.

III-guruh. Kitob.

IV-guruh. Sho’rtan.

O’quvchilar bilan birgalikda guruhlarda ishlash uchun amal qilinishi lozim bo’lgan qoidalar ishlab chiqiladi.

1. Intizom.
2. Faollik.
3. Vaqtga rioya qilish.
4. Asosli va mantiqli fikr bildirish.
5. Fikrni takrorlamaslik.
6. O`zaro hurmat.
7. O`ng qo`l qoidasi.
8. To`g`ri javob uchun rag`bat.

Darsda barcha shartlar bo`yicha har bir guruh a`zolari javoblari O`zbekiston davlati bayrog`i maketlari bilan rag`batlantirib boriladi.

Pedagog tomoidan tuzilgan yozma hujjatlar to`plami:

I-hujjat.

7 va 8-sinf maktab atlasidan olingan Qashqadryo viloyati tadiiy va iqtisodiy kartasi.

II- hujjat.

BMIning birinchi va ikkinchi boblarida ko`rsatilgan 1, 2, 3 hamda 9 va 10(quyidagi jadvalga qaralsin) - jadvallar.

Sanoat mahsulotlarini turlari bo'yicha ishlab chiqarish

Ko'rsatkichlar	O'lchov	2009	2010	2011	2012
	birligi	yil	yil	yil	yil
Elektroenergiya	mln.kv.s	5085,3	5839,2	6145,2	5804,1
Tabiiy gaz	mlrd.m3	54,2	50,2	53,3	51,6
Neft	mln.tn	2,0	1,7	1,5	1,2
Gaz kondensati	mln.tn	2,0	1,5	1,5	1,3
Oltingugurt	mln.tn	0,3	0,3	0,4	0,4
Paxta tolasi	ming. tn	148,3	146,5	143,5	142,3
O'simlik yogi	ming. tn	28,3	29,4	26,9	21,1
Xo'jalik sovuni	tonna	1154	1059	884,0	887,0
Omixta yem	ming tonn	61,5	97,5	86,1	87,5
G'isht	shartli mln dona	113,1	117,2	131,4	328,3
Yig'ma temir-beton	ming /m.3	97,4	94,3	120,7	120,8
Noruda material	ming.m/3	1102,6	706,5	894,7	845,0
Mebel	mln.so'm	3029,4	589,7	4211,7	5410,0
Lint	tonna	10780	12139,0	10705,0	11048,0
Trikotaj buyumlari	mln.so'm	1337,2	2550,0	1545,0	1476,0
Kiyim-kechak	mln.so'm	3862,3	1463,2	2475,0	6496,7
Kalava ip	tonna	6487	6621,0	5612,0	5875,0
Un	ming. tn	182,0	190,0	201,2	220,0
Non	ming.tn	164,0	186,3	201,3	203,4
Makaron mahsuloti	tonna	5125,0	4228,0	3724,0	4424,0
Sariyog'	tonna	389,0	636,0	320,0	301,0
Meva konservalari	mln.shb	23,9	26,5	27,2	26,8
Aroq mahsulotlari	ming. dal	249,0	309,0	326,0	340,0
Vino mahsuloti	ming.dal	x	1,0	65,0	68,0
Go'sht mahsulotlari	ming. tn	28,9	28,9	29,1	29,5
Sut mahsulotlari	ming. tn	39,6	42,2	42,4	43,4

III- hujjat.

Tezkor savol-javob:

- 1. Qashqadaryo respublika maydonining necha foizini egallaydi? (6,4%)*
- 2. Aholisining-chi? (9,3%)*
- 3. Viloyatning qaysi tumani tabiiy resurslarga boyligi jihatdan ajralib turadi? (Muborak, G'uzor)*
- 4. Qashqadaryo hududidagi suv omborlarni sanab bera olasizmi? (Tolimarjon, Chimqo'rg'on, Pachkamar va b.)*
- 5. Viloyatning asosiy sanoat markazlarini aytib bering. (Sho'rtan, Muborak, Qarshi, Shahrisabz va b.)*

IV- hujjat.

11- Jadvalni to'ldiring: Sanoat markazlarini ko'rsating.

Qishloq tumanlari	Yoqilgi-energetika	Mashina sozlik	Kimyo	Engil	Oziq-ovqat
Dehqonobod					
Kasbi					
Kitob					
Koson					
Mirishkor					
Muborak					
Nishon					
CHiroqchi					
SHahrisabz					
Yakkabog'					
Qamashi					
Qarshi					
G'uzor					

Yangi mavzu o'quvchilarning topshiriq javoblarini umumlashtirgan holda umumlashtirilib, qisqacha mazmuni bayon etiladi.

“Klaster” usuli yordamida yangi mavzu bo'yicha mustahkamlanadi. Bunda viloyatdagi tabiiy resurslar va ular ta'sirida rivojlangan iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha klaster tuzish topshirig'i beriladi. [10]

Guruhlarga berilgan topshiriqlar o'quvchilar bilan birgalikda tekshirib chiqiladi. “Aqliy xujum” va “Klaster” usullari topshiriqlarining bajarilishi tahlil qilinib, yakka tartibda “Yo'naltiruvchi matn” usuli topshiriqlari guruh asosida baholash jadvalida belgilanadi (12-jadval).

12-jadval

Baholash varaqasi

Topshiriqlar	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
I				
II				
III				
IV				

Ballar taqsimoti: A'lo – “3 ball”

Yaxshi – “2 ball”

Qoniqarli – “1 ball”

Qoniqarsiz – “0 ball”

Uyga vazifa: Qashqadaryo iqtisodiy-geografik rayoni mavzusini o'qib, yozuvsiz xaritaga viloyatdagi asosiy konlar va sanoat markazlarini tushirib kelish.

Yuqorida tavsiya etilgan dars ishlanmasi bo'yicha "Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayoni" mavzusini 277-umumta'lim maktabining 7 "V" sinfida mashg'ulot olib borilib, yaxshi natijalarga erishildi. Dars o'tish jarayonida ta'lim texnologiyalari agar ularni mavzuga mos holda tanlansa, o'quv jarayonining sifatini oshiradi, ta'lim oluvchilarning esa faolligini oshiradi degan xulosaga keldim.

Xulosa

“Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslaridan iqtisodiyotda foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ish yozish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Qashqadaryo viloyati joylashgan tabiiy geografik o‘rin, geologik tuzilishi va rel’ef xususiyatlari bu yerning yoqilg‘i-energetika, kimyoviy tuzlar kabi mineral resurslariga boyligiga, dehqonchilikda esa katta miqdordagi yer maydonlaridan foydalanishga asos bo‘ladi.
2. Viloyat mehnat resurslari uning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishida ijobiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, mintaqa aholisining qadimdan qishloq xo‘jaligi bilan Shug‘ullanib kelganligi uni respublikamizning asosiy dehqonchilik rayonlaridan biriga aylanishiga sababchi bo‘ladi.
3. Qashqadaryo viloyati va uning tumanlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi asosan bu yerda mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish darajasi bilan bog‘liq.
4. Qashqadaryo viloyati istiqbol rejalarining asosiy qismi ham aynan hududdagi tabiiy resurslarni to‘liq o‘zlashtirish va ulardan samarali foydalanish bilan bog‘liq.
5. Bitiruv malakaviy ish mavzusi asosida 8-sinf “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining “Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayoni” mavzusi bo‘yicha dars ishlanmasi tayyorlandi hamda pedagogik amaliyot jarayonida qo‘llandi. Ushbu mavzuni o‘tishda “Aqliy xujum”, “Yo‘naltiruvchi matn”, “Klaster” usullaridan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. – T.: O'qituvchi, 1994.
3. Ата-Мирзаев О., Тухлиев Н., Узбекистан: природа, население, экономика. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2009.
4. Ahmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma. – T.: O'zbekiston, 2006.
5. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.- T.:O'qituvchi, 1996.
6. Janubiy O'zbekistonda geografiya maktabining shakllanishi va rivojlanishi. – Termiz, 2006.
7. Jumaev T.J. O'zbekiston tog' zonasining tabiiy resurs salohiyati va ulardan oqilona foydalanish muammolari // Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. - Termiz, 2006.
8. Ziyomammedov B. Ta'lim texnologiyalari. – T.,2012.
9. Nabiev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. – T.: Universitet, 2000.
10. Musaev P, Musaev J. O'zbekiston iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi. – T: O'qituvchi, 2010.
11. Soliev A.S., Ahmedov E., Maxamadaliev R.Y. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2003.
12. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov SH. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: «MUMTOZ SO'Z», 2010.
13. To'xliiev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2008.
14. Fayzullaev M. Qashqadaryo viloyati agrolesurs salohiyatidan foydalanish masalalari. // O'z GJ axboroti, 34-jild. –T., 2009.-B. 72-75.
15. Xolmo'minov B. Qashqadaryo viloyatida tabiatdan foydalanishning hozirgi holati va istiqbollari // Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – T., 2009.B. 96-98.
16. Xalq so'zi. 28.09.2013 y.
17. www.qashqadaryo.uz

**Низомий номидаги ТДПУ Табиёт фанлар факультети «География
ва иқтисодий билим асослари» йўналиши 401-гуруҳ талабаси Марқаев
Бунёд Каримовичнинг «Қашқадарё вилояти табиий ресурсларидан
иқтисодиётда фойдаланиш» мавзусида**

ёзган битирув малакавий ишига

АННОТАЦИЯ

Қашқадарё вилояти табиий ресурсларининг асосий турлари, уларнинг географик тарқалиш хусусиятлари ўрганиб чиқилган. Иқтисодиёт тармоқлари ривожланишида табиий ресурсларнинг аҳамияти таҳлил қилинган. Битирув малакавий иш мавзуси асосида 8-синф “Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси” фани “Қашқадарё иқтисодий географик райони” мавзуси бўйича дарс ишланмаси тайёрланган.

АННОТАЦИЯ

По выпускной квалификационной работе на тему «Использование природных ресурсов в экономике Кашкадаринского вилоята» студента 4-курса Ташкентского Государственного Педагогического Университета им. Низами, факультета «Естественных наук», по направлению «География и основы экономических знаний» Маркаева Буняда Каримовича.

Изучены основные виды природных ресурсов Кашкадаринского вилоята, особенности его географического размещения. Проанализирована значение природных ресурсов в развитие отраслей экономики. Дана разработка на тему «Кашкадаринский географико-экономический район» по теме выпускного квалификационного работы для 8-класса.

ABSTRACT

According to the final qualifying work on "The use of natural resources in the economy Kashkadarya viloyat " 4- course student of the Tashkent State Pedagogical University names of Nizami , faculty " Natural Sciences " in "Geography and economic foundations of knowledge" Markaev Bunyad.

Studied the main types of natural resources Kashkadarya provinces, and especially its geographical placement . Analyzed the importance of natural resources in the development of economic sectors. Dana Development on "Kashkadarya geografiko - economic area" on the topic of the final qualifying for the 8 class.

Bitiruv malakaviy ish mavzusiga oid inglizcha – o'zbekcha atamalar lug'ati

Inglizcha	O'zbekcha
Accession	O'shish
Administrative	Ma'muriy
Agrarian	Agrar
Agriculture	Qishloq xo'jaligi
Anniversary	Yillik
Annual	Yillik
Area	Maydon
Ascendant	Ta'sir ko'rsatmoq
Atmospherical temperature	Havo harorati
Aviculture	Parrandachilik
Berry	Don
Business	Bandlik
Centre	Markaz
Channel	Kanal
Chart	Karta
Climate	Iqlim
Condition	Sharoit
Cotton	Paxta
Company	Kompaniya
Damp	Namlik
Density	Zichlik
Development	Rivojlanish

Disposal	Joylashuv
Economic	Iqtisodiy
Economics	Iqtisodiyot
Enterprise	Korxona
Export	Eksport
Fabrication	Ishlab chiqarish
Factor	Omil
Fecund	Unumdor
Fertile	Serxosil
Fruetgrowing	Mevachilik
Field crops	Dala ekinlari
Garden-tillage	Bog'dorchilik
Natural gas	Tabiiy gaz
Grain	Don
Geographical	Geografik
Plant	Zavod
Population	Aholi
Relief	Relief
Anniversary	Yillik
Resource	Resurs
Oil	Neft'
Connections	Aloqalar
Partnership	Hamkorlik
Power engineering	Energetika

Production	Xo'jalik
Organization	Tashkilot
Tourism	Turizm
World	Dunyo
Country	Mamlakat
Sity	Shahar
Desert	Dasht
River	Daryo
Mountain	Tog'
Suight	Balandlik
Province	Viloyat
District	Rayon
Border	Hudud
North	Shimol
South	Janub
west	G'arb
east	Sharq
Government	Hokimiyat
Forward	Daromad
Money	Pul
Product	Mahsulot
Industry	Sanoat
Stable	Barqaror
Potassium	Kaliy

Railway	Temir yol
Expenditure	Xarajat
Manufactory	Gazlama
Urbanization	Urbanizatsiya
Price	Narx
Relatively	Nisbiy
Running water	Oqar suv
Field	Poliz
Ore	Ruda
Education	Ta'lim
Technology	Texnologiya